Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi zamonaviy jamiyatning muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Narkotiklarning tarqalishi aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi, jamiyatning kriminallashuvini kuchaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi. Bu hodisaga qarshi samarali kurashish uchun narkotik vositilarning tabiati, klassifikatsiyasi va ishlab chiqarish usullarini tushunish talab etiladi.



PREKURSORLAR NOQONUNIY aylanmasi uchun javobgarlikni belgilash masalalari

USHBU MUAMMONI O‘RGANISHDA MUHIM JIHATLARDAN BIRI NARKOTIKLARNI ULARNING KELIB CHIQISH MANBALARI VA ISHLAB CHIQARISH USULLARI NUQTAYI NAZARIDAN TAHLIL QILISHDIR. BU NAFAQAT NARKOTIK MODDALAR TURLARINI TIZIMLASHTIRISHGA, BALKI ULARNING NOQONUNIY ISHLAB CHIQARILISHI VA TARQALISHINING OLDINI OLISHGA HAM IMKON BERADI.



Manbasi va tayyorlash usuliga koʻra narkotik vositalar uch guruhga boʻlinadi:

1. Tabiiy narkotiklar. Bu moddalar tarkibida narkotik komponentlar boʻlgan oʻsimliklardan olinadi. Ular oʻzgarmagan holda yoki minimal ishlovdan soʻng iste'mol qilinadi. Masalan, opiyatlar (opiy, morfin) koʻknori poyasidan olinadi. Kannabinoidlar (marixuana, gashish) kannabis oʻsimligidan tayyorlansa, kokain koka barglaridan olinadi.

2. Yarimsintetik narkotiklar. Ular tabiiy narkotiklarni kimyoviy qayta ishlash yoʻli bilan tayyorlanadi. Bularni tayyorlash uchun tabiiy moddalardan foydalaniladi va ular laboratoriya sharoitida modifikatsiya qilinadi. Masalan, geroin – morfindan ishlab chiqariladi, oksikodon tebain (opiy makinining alkaloidi)dan sintez qilinadi, LSD sporinya tarkibidagi ergotamindan sintez qilinadi.





3. Sintetik narkotiklar. Ular toʻliq sun'iy yoʻl bilan kimyoviy moddalar va prekursorlardan foydalangan holda olinadi. Bu narkotiklar koʻpincha yuqori konsentratsiyali aktiv komponentlar sababli xavfliroq boʻladi. Masalan, amfetaminlar – markaziy nerv tizimi stimulyatorlar, metamfetamin – kuchli psixostimulyator, fentanil – kuchli opioid ogʻriq qoldiruvchi, tuzlar va spayslar – sintetik psixoaktiv moddalar.

Narkotiklarni nazorat qilish xalqaro qo‘mitasi har yili “Qizil ro‘yxat”ni e’lon qiladi. Unda giyohvand moddalar va psixotrop vositalarni noqonuniy ishlab chiqarishda ko‘p qo‘llanadigan prekursorlar va kimyoviy moddalar ro‘yxati keltirilgan[1]. 2022-yilda qo‘mita prekursorlar bilan bog‘liq holat xalqaro nazoratga olinmagani, narkotiklarni noqonuniy ishlab chiqarishda ishlatiladigan kimyoviy moddalar bo‘yicha holat murakkablashganini qayd etdi. Qo‘mita yangi kimyoviy moddalar va ularning tarqalish usullari haqida ma’lumot almashadigan hukumatlarga minnatdorlik bildirdi va yangi tendensiyalarni aniqlash uchun to‘liq ma’lumot taqdim etishga chaqirdi[2].

Yarimsintetik va sintetik narkotiklar prekursorlar kabi kimyoviy moddalardan foydalanmasdan ishlab chiqarilishi mumkin emas. Bu birikmalar narkotik vositalar va psixotrop moddalarning kimyoviy sintezi jarayonida asos yoki yordamchi komponent sifatida xizmat qiladi. Prekursorlar narkotiklarning molekulyar tuzilmasini shakllantirish uchun material vazifasini bajaradi.

1961-yilda Narkotik vositalar bo‘yicha yagona konvensiya qabul qilingan. Ushbu konvensiyaning 2-moddasiga ko‘ra, taraflar sintetik narkotiklarni ishlab chiqarishda qo‘llanadigan nazorat qilinadigan moddalarning noqonuniy aylanmasining oldini olish choralarini ko‘rish majburiyatini olishgan[3].

BMTning 1971-yilda qabul qilingan Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra 1961-yildagi Narkotik vositalar to‘g‘risidagi yagona konvensiyada belgilangan qoidalarni aks ettiradi. Hujjatda asosiy e’tibor psixotrop moddalar aylanmasini tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, ularning noqonuniy ishlab chiqarilishi, tarqatilishi va qo‘llanishining oldini olish chora-tadbirlari ko‘rsatilgan[4].

BMTning Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiyasi 1988-yili Venada qabul qilingan. U prekursorlar va narkotiklarning noqonuniy ish-



Prekursor – kimyoviy modda, boshlang‘ich komponent yoki biron moddani sintez qilish jarayonida oraliq reaksiya ishtirok etuvchisi. Kimyoviy tajribalar kontekstida har qanday kimyoviy moddalar – reagentlar prekursorlar deb ataladi.

[1] https://www.incb.org/documents/PRECURSORS/RED_LIST/RED_LIST_R.pdf
[2] https://syntheticdrugs.unodc.org/uploads/syntheticdrugs/res/library/precursors_html/Precursors_and_chemicals_frequently_used_in_the_illicit_manufacture_of_narcotic_drugs_and_psychotropic_substances_2022_Russian.pdf
[3] Yedinaya konvensiya o narkoticheskix sredstvax 1961 goda s popravkami, vnesennыmi v nee v sootvetstvii s Protokolom 1972 goda o popravkax k Yedinoy konvensii o narkoticheskix sredstvax 1961 goda. https://www.unodc.org/pdf/convention_1961_ru.pdf
[4] https://www.unodc.org/pdf/convention_1971_ru.pdf

lab chiqarishida qo‘llanadigan kimyoviy moddalar ustidan global nazorat mexanizmlarini o‘rnatishda muhim rol o‘ynadi. Konvensiya bu moddalarning noqonuniy aylanmasining oldini olish uchun xalqaro darajada muvofiqlashtirilgan choralarni qo‘llash ahamiyatini alohida ta’kidlagan[5].

Prekursor – kimyoviy modda, boshlang‘ich komponent yoki biron moddani sintez qilish jarayonida oraliq reaksiya ishtirok etuvchisi. Kimyoviy tajribalar kontekstida har qanday kimyoviy moddalar – reagentlar prekursorlar deb ataladi. Ular zaharli kimyoviy moddalar yaratishga qaratilgan kimyoviy reaksiyada ishtirok etadi. Ayniqsa, prekursorlar guruhiga ko‘pincha oxirgi moddaning zaharli xususiyatlarini namoyon etish qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi reagentlar kiradi. Biokimyoda bu atama metabolik yo‘lning oraliq ishtirokchisiga nisbatan ishlatiladi. Keyingi paytlarda (2007-yildan boshlab) bu atama narkotik, kuchli ta’sir etuvchi yoki portlovchi moddalarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddalarni (masalan, narkotik vositalarning prekursorlari va h.) ifodalash uchun qo‘llanmoqda[6]. O‘zbekiston mazkur konvensiyaga O‘zbekiston Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevraldagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining konvensiyasiga qo‘shilish haqida”gi 32-I qaroriga muvofiq qo‘shilgan[7].

> Yarimsintetik va sintetik narkotiklar prekursorlar kabi kimyoviy moddalardan foydalanmasdan ishlab chiqarilishi mumkin emas. Bu birikmalar narkotik vositalar va psixotrop moddalarning kimyoviy sintezi jarayonida asos yoki yordamchi komponent sifatida xizmat qiladi.

Qiziqarli tomoni shundaki, narkotik vositalar va psixotrop moddalarga nisbatan “prekursor” atamasining aniq ta’rifi narkotiklarga qarshi xalqaro konvensiyalarning hech birida, jumladan, BMTning 1988-yildagi Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiyasida ham keltirilmagan. Mazkur konvensiyada faqat narkotik vositalar va psixotrop moddalar ishlab chiqarishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan moddalar bayon qilingan[8].

Jinoyatchilikning, xususan, noqonuniy tarzda narkotik va psixotrop vositalarni kimyoviy vositalardan foydalangan holda ishlab chiqarish va tayyorlash bilan bog‘liq holatlarining o‘sishiga javoban 1998-yilda BMT Bosh assambleyasi Siyosiy deklaratsiya va Jahon harakat dasturini qabul qildi[9]. Ushbu hujjat xalqaro qonunchilikni takomillashtirish va narkotiklarga qarshi kurash borasida mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha keyingi chora-tadbirlar uchun asos yaratdi. Shuningdek, u narkotiklar ishlab chiqarishda foydalaniladigan prekursorlar va boshqa kimyoviy moddalar ustidan nazoratning dolzarbligini tasdiqladi.

BMTning 1988-yildagi Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiyasi prekursorlar va narkotik hamda psixotrop vositalar ishlab chiqarish uchun qo‘llaniladigan kimyoviy moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi ilk xalqaro-huquqiy hujjatga aylandi.

Prekursorlar bilan bog‘liq noqonuniy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik joriy etilishi narkotik vositalar tarqalishining oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Bunday huquqbuzarliklarning kriminalizatsiya qilinishi nafaqat zamonaviy jamiyat sharoitida dolzarb, balki asoslidir. Zero, u sintetik narkotiklarning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan jinoyat-huquqiy chora sifatida xizmat qiladi.

Xurshid GAZIBEKOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va
korrupsiyaga qarshi kurashish
kafedrasi o‘qituvchisi

[5] https://www.unodc.org/pdf/convention_1988_ru.pdf.
[6] https://bigenc.ru/c/prekursor-5522c6.
[7] https://lex.uz/ru/docs/2620838.
[8] https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pdf/illicit_drugs.pdf.
[9] https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/pdf/drugs_politdecl.pdf.